


ТАЪЛИМ ВА ТЕХНОЛОГИЯ

Илмий-услубий мақолалар тўплами



ТАЪЛИМ ВА ТЕХНОЛОГИЯ

Илмий-услубий мақолалар тўплами

II
қисм

Тошкент – 2014

XALQ MUSIQA IJODIYOTI NEGIZIDA ESTETIK TARBIYANI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI

N.Xaydarova – DJPU, U.Ximoydinov – SamDU

Yosh avlodni hayot va san'at go'zalliklarini teran idrok etishlari, estetik uyg'u va badiiy didlarini o'stirishda adabiyot, san'at katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham ta'lim va tabiya nazariyasi va amaliyotida o'ziga xos maktab yaratgan mutafakkirlar, allomalar, pedagog-tarbiyachilar yosh avlodga beriladigan bilimlar tizimida estetik mazmun va mohiyat kasb etuvchi fanlarning shaxs ma'naviy-estetik kamolatga kuchli, badiiy-ematsional ta'sir o'tkazishi haqida ilmiy jihatdan asosli fikrlarni aytib o'ganlar.

Xalqimizning tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratilib kelinayotgan musiqa san'ati va uning eng ommaviy va eng ta'sirchan turlaridan bo'lmish og'zaki an'anadagi folklor va o'z nomlanishiga ko'ra "ustozona" san'at hisoblanmish mumtoz va maqom asarlarining shaxs ma'naviy va estetik kamolotidagi o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Chunki, har bir inson bolaligidan boshlab san'at og'ushida yashaydi. Uning qulog'iga kiradigan birinchi san'at namunasi ham ona allasidir. Ona allasi esa dunyodagi barcha xalqlarning eng ajoyib va mumtoz musiqiy asari bo'lib, insonni hali olam va hayotni idrok etolmaydigan paytidan san'atning sehirli olamiga etaklovchi va unga umurbod oshno qilib qo'yadigan mo'jizakor kuchdir. Shunga ko'ra ona allasi insonni san'at olamiga olib kiradigan eng birinchi omildir.

Inson ulg'aygan sari uning g'oyaviy, siyosiy, badiiy-estetik, ahloqiy, madaniy va ma'naviy dunyoqarashi, didi, tafakkuri, saviyasi shakllanib, rivojlanib boradi. Bu o'z navbatida tarbiyaning barcha tur va shakllar bilan chambarchas bog'liqlik va uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Shuning uchun musiqiy-estetik tarbiya uchun mas'ul pedagoglar, o'qtuvchi-murabbiylar bu ishni dars va darsdan tashqari faoliyatlar uyg'unligida olib borishlari lozim bo'ladi.

Ma'lumki, umumta'lim maktablarida musiqiy estetik tarbiyaning poydevori yaratiladi. Birinchi sinfdan yettinchi sinfgacha bo'lgan musiqa fani bo'yicha o'quv dasturi va darsliklariga kiritilgan o'quv materiallari mazmunida o'quvchi-

yoshlarni eng avvalo milliy musiqa merosimizga qiziqish va havaslarini o'stirish, uni sevib o'rganish, teran anglash, idrok etish orqali zamonaviy, qardosh va jahon xalqlari musiqa durdonalari bilan yaqindan tanishtirish, ularni nazariy va amaliy jihatdan o'zlashtirish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdek ulug'vor maqsad yotadi.

Aytish joizki, bunday mas'uliyatli maqsad va vazifalarni ijobiy hal etishda jiddiy muammolar bilan birga musiqa ta'limi va tarbiyachisini samarali kechishini ta'minlashda qo'l keladigan imkoniyatlar ham mavjud. Bu o'rinda musiqa o'qituvchilarining izlanuvchanligi, tashabbuskorligi, eng kichik imkoniyatlardan ham samarali foydalana olish mahorati, o'z kasbi va o'quvchilarga mehr-muhabbati hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Umumta'lim maktablarida musiqa darslarini haftasiga bir soat hajmida o'tilishi o'quv dasturidan o'rin olgan juda katta va keng hajmdagi o'quv materiallarini ularning o'zlashtirish darajasigaa qo'yilgan talablarga mos ravishda egallashlari uchun nihoyatda kamlik qiladi. Bunday holatda musiqa ta'lim va tarbiyasini dars va darsdan tashqari ish faoliyatda tashkil etish, shu orqali ta'lim sifat va samaradorligiga erishish eng maqbul va to'g'ri yo'l hisoblanadi. Ilmiy izlanishlar davomida biz ham shunday ish tutish hozirgi kunda eng ishonchli yo'l ekanligiga amin bo'ldik. Chunki badiiy havaskorlik to'garaklari o'quvchi-yoshlarning katta qismini qamrab olishi, hayotimizdan keng o'rin egallagan madaniy-ma'rifiy va ommaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishning eng qulay ish shakli bo'lib, bu o'quvchilarni xalq musiqa ijodiyoti bilan atroflicha tanishtirib borish, musiqiy ta'lim va tarbiya mazmunini milliy asoslarini mustahkamlashda ham ijobiy natijalarga erishish imkoniyatini beradi.

Xalqimiz milliy madaniyatiga e'tibor kuchayotganligini chuqur his etgan havaskorlik ansambllari, folklor-etnografik dastalari qatorida professional san'at uyushmalari a'zolari ham o'z repertuarlarida xalq kuy va qo'shiqlariga mumtoz va maqom namunalariga keng o'rin bermoqdalar. Bu esa o'z navbatida o'quvchi-yoshlarni xalq musiqasiga qiziqishlarini hamda ularni o'rganish va kuylashga ishtiyoqlarini kuchaytirishga o'z ta'sirini o'tkazayotganligi shubhasiz. Shunday ekan xalqimizning boy musiqa merosiga oid namunalarini yoshlarga o'rgatishda nihoyatda ehtiyotkorlik bilan ish tutish kerak bo'ladi. Bu o'rinda o'quvchilarning yoki to'garak qatnashchilarining yosh va individual xususiyatlarini, qo'shiq kuylash imkoniyatlarini, ya'ni musiqa darslarida olgan musiqiy-nazariy bilimlari amaliy ijrochlik malakalarini va eng muhimi, ular uchun tanlanadigan namunalarni murakkablik darajasi, g'oyaviy-badiiy mazmunini, tabiiy ta'sirchanlik xususiyatiga egaligi, bolalar ovoz diapozoniga, badiiy didiga mosligi kabilar e'tiborga olinishi lozim bo'ladi. Muayyan tadqiqiy izlanishlarimiz davomida biz xalq musiqa ijodiyotiga oid materiallarni tanlash, badiiy havaskorlik to'garaklari repertuariga kiritish, ulardan o'quvchi-yoshlarning estetik tarbiyasida foydalanishda nimalarga ko'proq e'tibor berish, repertuar tanlashda qaysi mezonlarga tayanish lozimligi xususida jiddiy mushohada yuritib o'zimizga ma'qul bo'lgan jihatlarni belgilab ish tutishga harakat qildik.

1. O'rganish uchun tanlangan har bir qo'shiq, aytim, ashulalarni mavzas mazmuniga e'tibor qaratish.

2. Asarlarning janri, xarakteri, xalq hayotining qanday ko'rinishlari bilan bog'liqligi, yaratilgan davri, mualliflari haqida ma'lumotlarga keng o'rin berish.

3. Musiqiy asar namunalarini qaysi janr, mavzuda bo'lishidan qat'iy nazar tarbiyaviylik xususiyatiga ega bo'lishiga qarab tanlash.

4. Musiqiy asarlar tinglovchilar, o'rganuvchilarning qiziqishlari, badiiy-estetik saviyasiga mos kelishi, badiiy jihatdan pishiq, yoqimli ohangdorlikka ega bo'lishini nazarda tutish.

5. Musiqa asarlarini badiiy yuksak ijod namunasi bo'lishi bilan birga bolalar uchun tushunarli, yengil o'zlashtiriladigan, xotirasiga tez o'rnatiladigan, turli mavzulardagi madaniy tadbirlarga ijro etish imkoniyatining mavjudligini hisobga olish.

O'quvchi-yoshlarni xalq ijodiyoti vositasida estetik tarbiyalash jarayonini samarali kechishi o'rganilgan, ijro etilgan namunalarni tinglovchilar va ijrochi havaskorlarning hissiyotiga, ongiga qay darajada badiiy- emotsional ta'sir etishi u haqdagi ma'lumotlar, tushunchalarining o'qituvchi-rahbar tomonidan qo'llanilgan ta'limiy-tarbiyaviy ish usullarining xilma-xilligi, qiziqarliligiga bog'liq bo'ladi. Bundan esa qo'shiqchiga xulosalar chiqarish mumkin:

- xalq musiqa merosiga doir asarlarni o'quvchi-yoshlarning badiiy-estetik tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishni ta'minlash uchun ularni yuqori sifatli ijrosiga erishish eng muhim omildir;

- xalq musiqa ijodiyotiga mansub kuy va qo'shiqlar yoshlarga estetik zavq baxsh etishi, ularni go'zal hissiyotlar olamiga olib kirishida mashg'ulotlarning muntazamligi, uzviyligiga va maqsadli bo'lishiga erishish lozim;

- mashg'ulotlarda xalq musiqa merosi, qo'shiq ijrochiligi, o'zbek xalq musiqasining mahalliy ijrochilik uslublari, ommaviy janrlari, mashhur namoyondalari, an'analari, xalq xalq turmishining u yoki bu jabhalari, ko'rinishlari bilan bog'liqligi, g'oyaviy-badiiy mazmuni haqida maxsus pedagogik suhbatlar o'tkazish orqali yaxshi natijalarga erishish mumkin.

214	А.Н.Нуритдинов, Х.А.Нуритдинова, И.Жўраев, М.Махкамов*. Ёғоч ўймакорлиги санъати тарихидан	533
215	Ya.Norbekova, A.Mustofoyev, M.Sirojiddinova. "Temur va temuriylar davri me'morlik san'ati" mavzusini interfaol usullardan foydalanib o'qitish	539
216	D.Irgashev, Sh.Oydinov. Tasviriy san'at vositasida tarbiya masalalari	543
217	A.N.Nuritdinov, X.A.Nuritdinova, B.Xujamurodov, U.Sharaboyev. Perspektiva fani tarixidan	545
218	A.N.Nuritdinov, X.A.Nuritdinova, I.X.Boboyev, S.A.Ibragimova. Badiiy bezak san'ati	550
219	И.Жураев, А.Н.Нуритдинов, Х.А.Нуритдинова, У.Шарабоев. Фазовий сиртларни моделлаштиришда статик-геометрик усулдан фойдаланиш	553
220	K.Djalilov, G.M.Davronova, Sh.Sh.Shayqulov. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining pedagogik mahoratini shakllantirish masalalari	555
221	Z.Karimov**. O'quvchi yoshlarda milliy musiqa merosimizga faol munosabat va qiziqishini shakllantirish	557
222	Sh.Sh.Shayqulov, G.M.Davronova. Musiqa madaniyati darslari samaradorligini oshirishda multimedia vositalridan foydalanish	559
223	U.Boliyev. Sharq taronalarining yoshlarimiz ma'naviyatini yuksaltirishda tutgan o'rni	563
224	N.Xaydarova, U.Ximoydinov. Xalq musiqa ijodiyoti negizida estetik tarbiyani tashkil etish imkoniyatlari	565
225	A.Odilov, A.Yunusov. O'quvchilarni musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishda o'qituvchining kasbiy mahorati	567
226	M.Salaxutdinova, Sh.Toshmurodov, I.Yakubjonov. Sportchi yoshlarni shakllantirishning ta'lim-tarbiyaviy muammolari	570
227	M.Xolmatov, P.Абдуқодиров. Жисмоний тарбия ўқитувчиси ва мураббий фаолиятининг психологик асослари	575
228	О.В.Ерошенко. О значении физического воспитания детей школьного возраста	577
229	М.М.Юсупов, И.А.Аюбжонов. Ўсмир тарбиясининг ўзига хос хусиятлари	579
	М.М.Юсупов, И.А.Аюбжонов. Ота-оналарнинг ҳуқуқий тарбияси	582
231	М.А.Қаҳҳоров, А.С.Боynazarov. Falsafa ta'limi islohoti masalasiga doir (Taqriz)	586
232	M.Rahmonova, Z.Qambarova. Lixtenshteyn knyazligi	590
233	M.Rahmonova, B.Omonov. Lyuksemburg buyuk gersogligi	591